XALQ DEPUTATLARI BOG‘OT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 31-iyul VI-114-111-12-170-K/24 Bog‘ot tumani

Bog‘ot tumanidagi ayrim qabristonlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Xorazm viloyati hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2024-yil 20-iyundagi 01-19/5697-sonli murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 1-iyuldagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert komissiyasining 05-19-01-2406-sonli xulosasi va yig‘ilish bayoni, shuningdek, “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 14-maydagi 7-52-sonli yig‘ilish bayonnomasi Respublika toponimika boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. “Bog‘ot tumanidagi ayrim qabristonlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida”gi masala yuzasidan Bog‘ot tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va o‘zbek tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish masalalari bo‘yicha maslahatchisi I.Razzaqovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert komissiyasining 05-19-01-2406-sonli xulosasiga asosan tumandagi ayrim qabristonlarning nomlanishi va qayta nomlanishi bo‘yicha ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Bog‘ot tumani Kengashining 2014-yil 25-iyunda “Bog‘ot tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risida”gi 31/158-sonli qarorining “Madaniyat” MFYda joylashgan qabristonga “Qarri xo‘ja bobo” nomini berish to‘g‘risidagi bandi bekor qilinsin.

4. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (R.Madaminov)ga tumanda nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan ayrim qabristonlar to‘g‘risida aholi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borish vazifasi yuklansin.

5. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyozov), tuman statistika bo‘limi (R.Bekiyev), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (E.Eshniyozov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (R.Jumaniyozov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Tojiyev), tuman davlat xizmatlari markazi (S.Masharipov) va boshqa tegishli tashkilotlar mazkur qarordan kelib chiqib, tegishli hujjatlar va hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin, tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Bekchanov) nomlari tasdiqlangan qabristonlarning nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari M.Baxtiyarov “Bog‘ot sadosi” gazetasi bosh muharriri M.Abdullayeva bilan birgalikda mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O‘.Bog‘bekov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi O.Matniyozov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi NAZAROV JAHONGIR BAXRAMOVICH

Xalq deputatlari Bog‘ot tumani Kengashining
2024-yil 31-iyuldagi
VI-114-111-12-170-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bog‘ot tumanidagi nomlash va qayta nomlash taklif etilayotgan qabristonlar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komisiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1.	Qabriston	“Nurafshon” shaharchasi	nomsiz	Hakimxo‘ja	Keksalar og‘zidan eshitgan rivoyatlarga qaraganda, Hakimxo‘ja o‘g‘li Xubbi xalq orasida “Hakim ota” nomi bilan mashhur bo‘lgan Sulaymon Boqirg‘oniyning farzandlari bo‘lganlar. Sulaymon Boqirg‘oniy Ahmad Yassaviyning suyukli shogirdlaridan biri bo‘lganlar. Hakim otaning 3 ta o‘g‘li bo‘lgan. Ularning ichida eng iste’dodlisi Hakimxo‘ja o‘g‘li Hubbi bo‘lgan.U kishi juda karomatli inson bolib, hamisha yordamga muhtoj kishilarga yordam berib kelganlar.Kasal yotgan insonlar yonida paydo bo‘lib, ular shifo topgandan keyin qo‘qqisdan g‘oyib bo‘lib qolar ekanlar. Shuning uchun bu zotning xalq orasida G‘oyib bobo nomi bilan mashhur bo‘lishi haqida mahalliy aholi orasida ana shunday rivoyatlar kelib chiqqan deydilar. Shu hudud aholisining tarixiga asosan taklif etilayotgan nom.
2.	Qabriston	“Madaniyat” mahallasi	Qarri xo‘ja bobo	Mulla Xo‘ja bobo	Keksalar og‘zidan eshitgan rivoyatlarga qaraganda, Mulla Xo‘ja boboning kelib chiqishlari haqida aniq ma’lumot saqlanmagan. Tarixda buyuk valiy bo‘lganlar, sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarni oldindan bilganlar va din, ilm va ma’rifat yo‘lida nihoyatda g‘ayratli bo‘lganliklari xalq tilida aytilib kelinadi. Mulla Xo‘ja bobo shu hududga kelib, qo‘nim topganlar mahalliy aholi o‘rtasida islom dinining yoyilishida o‘z hissalarini qo‘shgan ulug‘ inson bo‘lganlar. Uzoq umr

					ko‘rib, nuroniy bo‘lib, ko‘p yillar umrguzaronlik qilganlar hamda juda ko‘plagan shogirdlarni tarbiyalaganligi sababli, xalqning orasida Mulla Xo‘ja bobo nomi bilan dovrug‘ qozongan. Shu hudud aholisining tarixiga asosan taklif etilayotgan nom.
3.	Qabriston	“Oq oltin” mahallasi	nomsiz	Avliyotepa	Keksa nuroniylarning so‘zlariga qaraganda mahalliy aholi qabristonni Avliyotepa deb atashadi. Chunki qabriston uzoqdan tepalikda turgandek ham ko‘rinadi. Keksalar og‘zidan eshitgan rivoyatlarga qaraganda G‘oyib otaning asl ismi Sulton Xubbi bo‘lgan. Uning ikkita Muhammad va Asg‘ar ismli akalari bo‘lgan. Eng iste’dodli va karomatlisi Sulton Xubbi bo‘lgan.Uning qiz singillari ham bo‘lgan. Onalarining ismi Anbar bo‘gan.Sulton Xubbining shunday xislatli inson bo‘lganligini ko‘rgan otasining hasadi keladi. Sulton Xubbi otasidan xafa bo‘lib, uyidan chiqib ketadi va Bog‘otga kelib qo‘nim topadi. U juda karomatli inson bo‘lgan ekanlar. Umrining oxirigacha insonlarga yaxshilik qilib, ezgu ishlarga bosh bo‘lib yurgan ekanlar. G‘oyib ota kasal bo‘lib yotgan insonlar yonida birdan paydo bo‘lar va tuzalganidan keyin yana o‘sha tepalikdan g‘oyib bo‘lib qolar ekanlar. Shu hudud aholisining tarixiga asosan taklif etilayotgan nom.
4.	Qabriston	“Qorabog‘” mahallasi	nomsiz	Qora alam bobo	“Xo‘ja bobo” qabristoni bundan 350-370 yillar oldin barpo qilingan bo‘lib, mahalliy aholi bu qabristonni “Qora alam bobo” deb ham ataydilar. Qabristonning nima uchun bunday deb atalishi haqida aniq ma’lumot va yozma manbalar saqlanmagan, faqat xalq ogzaki manbalariga qaraganda “Qora alam bobo” Arabistondan ozining hamrohlari Abu Tolib (hozirgi Nurafshon shaharchasida joylashgan “Tolli bobo” qabristoni), To‘bal bobo (hozirgi Qulonqorabog‘ mahallasida joylashgan “Taval bobo”qabristoni)lar bilan bir vaqtda kirib kelganlar.Qora alam bobo yo‘lida davom etib, Qorabog‘ mahallasida qo‘nim topganlar. Qora alam bobo asli xo‘jalar naslidan bolgani uchun ham mahalliy aholi u kishini Xo‘ja bobo deb ataganlar va hozirda ham ushbu atama qabristonga nisbatan ishlatilib kelinmoqda.Qora Alam bobo - Xo‘ja bobo yurtimizga islom dinini targ‘b qilish maqsadida tashrif buyurgan tarixiy shaxslardan biri bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shu hudud aholisining tarixiga asosan taklif etilayotgan nom.
5.	Qabriston	“Nayman” mahallasi	nomsiz	Qarri xo‘ja bobo	Keksalardan eshitgan rivoyatlarga qaraganda Qarri xo‘ja bobo asl ismlari haqida ma’lumot yo‘q. Qarri xo‘ja boboning kelib chiqishi haqida ajdodlarimizdan yetib kelgan ma’lumotlar Xorazmshohlar davriga borib taqaladi. Qarri xo‘ja bobo Ko‘hna Urganch tomondan kelgan deb qaraladi. U

					kishi ziyorat qilish uchun oq tuyada safarga chiqqanlar. Tuya yo‘l yurib charchagandan keyin hozirgi kunda Qarri xo‘ja bobo mahgu qo‘nim topgan joyga kelib cho‘kkan. Qarri xo‘ja bobo qabristoni nomining kelib chiqishi shu rivoyat bilan bog‘liq.Bugungi kunda Qarri xo‘ja bobo qabristoni mahallada o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, qadim tarixni eslatadigan muqaddas va tabarruk qadamjoga aylangan. Shu hudud aholisining tarixiga asosan taklif etilayotgan nom.